

**AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA  
TADQIQOTCHILIK KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Abdurazakova Zebiniso Akmal qizi*

*Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada aksiologik yondashuv asosida talabalarda tadqiqotchilik kompetentsiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi va uning dolzarbliги hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, Har bir qadriyatning negizida, mohiyati va ahamiyatida tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etish imkoniyatlari ham tahlil qilingan

**Kalit so‘zlar.** Aksiologik yondashuv, talabalar, tadqiqotchilik kompetentsiyalari, qadriyatlar, ijtimoiy-falsafiy fikr, aksiologiya qonuniyatlar, ilmiy muammolar.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФОРМИРОВАНИЯ  
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА  
ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

*Абдуразакова Зебинисо Акмал кызы*

*Базовый докторант Кокандского государственного университета*

**Аннотация.** В статье излагаются размышления по вопросу совершенствования механизмов формирования исследовательских компетенций студентов на основе аксиологического подхода и его актуальности. Анализируются основа, сущность и значение каждой ценности с точки зрения познания явлений природы, общества и духовного мира, научного обобщения, а также возможности влияния на социальное и духовное развитие.

**Ключевые слова:** Аксиологический подход, студенты,

*исследовательские компетенции, ценности, социально-философская мысль, аксиологические закономерности, научные проблемы.*

**IMPROVEMENT OF MECHANISMS FOR DEVELOPING  
RESEARCH COMPETENCES IN STUDENTS ON THE BASIS OF  
AXIOLOGICAL APPROACH**

Abdurazakova Zebiniso Akmal qizi

Basic doctoral student of Kokand State University

***Annotation.*** This article presents some thoughts on the issue of improving the mechanisms for developing research competencies in students on the basis of an axiological approach and its relevance. Also, the basis, essence and significance of each value are analyzed in terms of knowledge of phenomena of nature, society and the spiritual world, scientific generalization, and the possibilities of influencing social and spiritual development

***Keywords.*** Axiological approach, students, research competencies, values, socio-philosophical thought, axiological regularities, scientific problems.

**Kirish.** Tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichida insoniyat hayotning ma’nosini tushunishga harakat qilib, u to‘g‘ridagi turli qarashlar, fikrlar yuzaga kelishiga, o‘z navbatida, yangi qirralar ochilishiga turtki bo‘lgan. Barcha falsafiy-ijtimoiy tushunchalar qatori qadriyatlar sohasi va aksiologiya qonuniyatlari tushunchalarining mohiyatini ham ana shu tarixiy taraqqiyot asosida yoritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki insoniyatning ilk madaniy taraqqiyot davrlaridan boshlab bugungi rivojlangan zamonda ham ijtimoiy-falsafiy fikr egalarini bu jihatlar qiziqtirib keladi. Dunyo olimlari e’tibor markazida turgan ilmiy muammolar qatorida yuqorida tayanch tushunchalarning hayotiy jarayonlar bilan uzviyligi masalasi muhim ahamiyatga ega.

Har bir qadriyatning negizida, mohiyati va ahamiyatida tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etish imkoniyatlari yotadi. Yangi qadriyatlarning yuzaga kelishi esa insonning obyektiv olam, ma’naviyat borasidagi bilimlari vorislik asosida

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

davom etayotganining ifodasisidir. Qadriyatlar inson ma’naviy kamolotiga ta’sir etuvchi muhim omil hamdir. Har bir millat rivojlanishdagi tarixiy voqealar, unga ijobjiy hissa qo‘sghan shaxslarning tajribalari ham milliy qadriyatlar jumlasiga kiradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Aksiologiya qonuniyatlari anchayin keng qamrovli tushuncha bo‘lib, qator ijtimoiy ma’naviy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Fan tarixida umuminsoniy qadriyatlar, Aksiologiya tamoyillari to‘g‘risidagi bir qarot fikr va qarashlar mavjud. Ushbu sohadagi fikr va qarashlardagi xilma-xillik tabiiyki, Sharq va G‘arbning xos jihatlari, qadriyatlar borasidagi turlicha nuqtai nazar samarasi hisoblanadi. O‘rtta asr allomalari, shuningdek, dunyo e’tiborini qozongan olimlar asarlarida fikr yuritilayotgan mavzuning turli jihatlariga doir qimmatli mulohazalar uchraydi.

“Falsafa: izohli lug‘at”da qadriyat tushunchasiga berilgan turli ta’rif va tavsiflarni umumlashtiruvchi mezонни aniqlashga urinilgan. Pirovardida shunday xulosa beriladiki, “Qadriyatlar” tushunchasi aksariyat falsafiy sistemalarda inson uchun ahamiyatli narsalar rivojlanishining yuksak taraqqiy qilgan shakliga nisbatan ishlataligan” [1;419]. Shu o‘rinda ilmiy adabiyotlarda “qadriyat” tushunchasiga ko‘proq ijtimoiy-falsafiy jihatdan yondashilganiga guvoh bo‘lamiz. Bunda aksiologik tarafidan ko‘ra, qadriyatlarning umumlashib, yaxlit hodisa ko‘rinishida yuzaga chiqadigan ijtimoiy mezon sifatidagi xususiyatiga ahamiyat qaratiladi. Bunday tavsiflarda ijtimoiy tahlil ustuvor ekanligi sezilib, qadriyatlarning odamlarni qalban va ruhan ulg‘aytirishi, ichki olamini boyitib, ruhini poklashi, iymon-e’tiqodini mustahkamlab, insofu adolat tuyg‘ularini rag‘batlantirishi masalalariga urg‘u beriladi.

**Muhokama va natijalar.** Aksiologiya qonunlarining mavjudligi va yashovchanligini ta’minlaydigan ijtimoiy faoliyat jamiyatdagi ma’naviy qadriyat va jarayonlar majmui sifatida amaldagi tarixiy davrning sohaga doir talab va ehtiyojlarini namoyon etadi. Bu jihatdan, aksiologiya qonuniyatlari “jamiat hayotining yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi va shu asosdagи

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

ma’naviy tamoyillar yordamida amal qiladi” [2;196]. Shu bois, ma’naviy hayotga xos bo‘lgan o‘zaro harakat shaxslararo munosabatlarga asoslanadi.

Aksiologik yondashuv ma’naviy hayotda yaratilgan narsa va hodisalar inson hayoti uchun qay darajada ahamiyat kasb etishini asoslab beradi. Demak, ma’naviy hayotda yuz beradigan har qanday jarayonlarda shaxs ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirishi, o‘zgalarga ulashishi bilan taraqqiy ettiradi. Sohadagi ma’naviy yaxlitlik bu insonning o‘zini namoyon qilishida tashqi olam bilan aloqani chuqur aksiologik qonuniyatlar orqali olamga munosib bo‘la olishi omilida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasi talabalarning o‘z kasbiy sohalarida ilmiy izlanish olib borish, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun nazariy asoslarni aniqlash va innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Nazariy tahlil - ilmiy-tadqiqotchilik kompetentsiyasining mohiyati, tarkibiy qismlari va shakllantirish jarayonini o‘rganishda mavjud ilmiy manbalar, pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilindi. Tizimli yondashuv - ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini talabalarning umumiy ta’lim jarayonidagi o‘rnini belgilashda tizimli fikrlash tamoyillaridan foydalanildi. Tajriba-sinov tadqiqot - talabalarning ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini shakllantirish bo‘yicha turli pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni sinovdan o‘tkazish orqali amaliy natijalar olindi. Anketalar va so‘rovlar - talabalarning ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatlarini aniqlash uchun diagnostik testlar, anketalar va so‘rovlar o‘tkazildi.

Taqqoslash va umumlashtirish - olingan ma’lumotlar zamonaviy ilmiy tendensiyalar bilan solishtirildi va umumlashtirildi. Mazkur metodologik yondashuvlar asosida talabalarning ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini rivojlantirish jarayonida samaradorlikni oshirishga qaratilgan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Talabalarning ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini shakllantirishga oid ilmiy-adabiy manbalar tahlili bu masalaning dolzarb ekanligini

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

tasdiqlaydi. Ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ushbu mavzuda samarali ish olib borib, turli yondashuv va uslublarni taklif etgan.

D.A.Kolb va J.P.Guilford tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘quv jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatgan. Ularning fikricha, ilmiy kompetentsiya talabaning tahliliy fikrlashi, muammolarni aniqlashi va ularni hal qilish bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatidan iboratdir. Shu bilan birga, G.V.Rogov va A.M.Novikov kabi olimlar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni va ahamiyatini alohida ta’kidlaganlar.

Talabalarning ilmiy kompetentsiyasini shakllantirishda ta’lim jarayoniga tizimli yondashuv samarali hisoblanadi. J.Bruner va V.Davidov tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv yondashuv ilmiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy omili sifatida tan olingan. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotchilar – E.F.Zeer va Yu.K. Babanskiylar – innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Mahalliy olimlari – M.To‘xtayev, G.Saidova va L.Bekmuratov – ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini rivojlantirishda milliy va xalqaro tajribaning integratsiyasiga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning fikricha, talabalarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish uchun o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish va innovatsion ta’lim shakllaridan foydalanish zarur. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini shakllantirish nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham talab qiladi. Shu bois, ushbu maqola mazmunida ilg‘or nazariy va amaliy yondashuvlarni birlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Talabalarning ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini shakllantirish nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish, balki mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun ham muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni bir necha asosiy omillarga bog‘liq: innovatsion pedagogik texnologiyalarning

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

qo'llanilishi, nazariy va amaliy mashg'ulotlarning integratsiyasi hamda o'qituvchilarning malaka darajasi. Muhokama davomida aniqlanganidek, ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini shakllantirishda tizimli va kognitiv yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Talabalarning mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilish, loyiha asosidagi ta'lim va muammoli ta'lim metodlari ushbu jarayonni samarali amalga oshirishga imkon beradi. Bu uslublar talabalarga real hayotdagi ilmiy masalalarni mustaqil tahlil qilish va hal qilish imkoniyatini beradi. Muhokamada innovatsion texnologiyalar, xususan, virtual laboratoriylar, onlayn platformalar va interaktiv o'quv dasturlaridan foydalanish talabalar ilmiy faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil ekani qayd etildi. Zamonaviy texnologiyalar orqali o'quvchilar ilmiy izlanish jarayonida ijodiy fikrlash va analistik tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, aksiologik yondashuv asosida talabalarda tadqiqotchilik kompetentsiyalarini rivojlantirish masalasini ijobiy hal qilishi uchun ular bilan ishlashning o'ziga xos psixotexnik ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi. Buning uchun ochiqlik, ijobiy ta'sirchanlikka asoslangan muloqotni amalga oshirish qobiliyati, talabalarning shaxsiy va o'quv-kasbiy muammolarni tushuna olishi, insonparvar munosabatda bo'lish, yoshlar bilan bogliq har qanday masalalar bo'yicha munozaralarni tashkil etish malakasiga ega bo'lish zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Falsafa: izohli lug'at.–Toshkent: O'zFA Falsafa va huquq instituti, 2008. – 419
- b. 2. Nazarov Q. Aksiologiya. – Toshkent: A.Qodiriy, 1994.
3. Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997.
4. Mardonov SH., Xodjaev B., Tayanova SH., Xojimuhamedova D. Pedagogik aksiologiya. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – B. 3-4 (184) bet.
5. Bruner, J. Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press, 1966.
6. Guilford, J. P. The Nature of Human Intelligence. McGraw-Hill, 1967.
7. Davydov, V. V. Problemy razvitiya myshleniya v obuchenii. Moskva: Pedagogika, 1986.